Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna, Gazibekova Gulavza Ergashovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
Murodov Akmal Djayliboyevich	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
Po'latova Parida	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
Saparova Gulmira Baxtiyorovna	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili	923
Umarov Aziz Avazovich	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
Vasila Almetova Sunnatullayevna	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
Adizova Nodira Baxtiyorovna	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari	936
Akmaljon Xushvaqto'v	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari	939
Delov To'liqin Erkinovich	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	



Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MILLIY IDENTITET VA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Primkulova Iroda Berdimurodovna

Qarshi Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari hamda pedagogik texnologiyalari yoritilgan. Unda davlat ta'lim siyosati, milliy qadriyatlar, tarbiya jarayonida zamonaviy yondashuvlarning o'рни va samarali metodikalarning qo'llanilishi tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni qadrlash va vatanparvarlik ruhini shakllantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy identitet, vatanparvarlik, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiyalar, fuqarolik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, tarbiyaviy jarayon, ma'naviy meros.

Abstract: The article examines the scientific-theoretical foundations and pedagogical technologies for developing national identity and patriotism among primary school students. It analyzes state educational policy, the role of national values, the application of modern approaches in the educational process, and the use of effective teaching methods. Special attention is given to strengthening students' civic position, fostering national self-awareness, respecting historical heritage, and cultivating a spirit of patriotism.

Key words: national identity, patriotism, primary education, pedagogical technologies, civic education, national values, educational process, spiritual heritage.

Аннотация: В статье рассмотрены научно-теоретические основы и педагогические технологии формирования национальной идентичности и патриотизма у учащихся начальных классов. Анализируются государственная образовательная политика, роль национальных ценностей, современные подходы в воспитательном процессе и применение эффективных методик. Особое внимание уделено укреплению гражданской позиции школьников, осознанию национальной самобытности, уважению исторического наследия и формированию патриотического духа.

Ключевые слова: национальная идентичность, патриотизм, начальное образование, педагогические технологии, гражданское воспитание, национальные ценности, воспитательный процесс, духовное наследие.

KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish masalasi nafaqat tarbiyaviy jarayonning, balki davlat siyosatining ham eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish va vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jarayoni ta'lim tizimining eng muhim vazifasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlari hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlari aynan ushbu masalaning dolzarbligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli¹ Qonunida (2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan) ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat, mustaqillik g'oyalariga sodiqlik hamda fuqarolik burchini anglashni shakllantirish belgilab qo'yilgan. Shuningdek, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da (1997-yil) ham uzluksiz ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida milliy g'oya, mafkura va qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish, o'z ona yurtiga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim omil sifatida ta'kidlangan.

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonun: <https://lex.uz/docs/-5013007>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4312-son² qarorida yoshlar bilan ishlashning yangi mexanizmlari ishlab chiqildi va milliy identitetni mustahkamlash, vatanparvarlik tarbiyasini samarali tashkil etish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Shu bilan birga, 2021-yil 19-martda qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmonida milliy qadriyatlar, an'analar va tarixiy merosni yosh avlod qalbiga chuqur singdirish, ularning ongida milliy iftixor va Vatanga sadoqat ruhini mustahkamlash ta'lim-tarbiya jarayonining bosh maqsadi sifatida qayd etilgan. Shuningdek, "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi (2017-yil) hamda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida ishlab chiqilgan strategik hujjatlar ham maktab ta'limining, xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Chunki aynan shu davrda bola shaxsining psixologik va ijtimoiy qiyofasi shakllanadi, ma'naviy qadriyatlariga nisbatan dastlabki munosabatlari mustahkamlanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ko'p bora yosh avlod tarbiyasiga e'tibor qaratib, "Yoshlarning qalbi va ongida milliy iftixor, yurtga sadoqat, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash – bu bizning kelajagimizni ishonchli kafolatidir", deya ta'kidlagan. Ushbu fikrlar, shubhasiz, boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o'quvchilarda milliy identitetni shakllantirish masalasining naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Demak, boshlang'ich ta'lim tizimida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari nafaqat pedagogik zarurat, balki ijtimoiy buyurtma sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, ilmiy asoslangan yondashuvlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va zamonaviy tarbiyaviy metodlar uyg'unligi yosh avlodni barkamol, Vatanga sodiq, milliy qadriyatlarni qadrllovchi insonlar etib tarbiyalashning asosiy kafolatidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayonida bir nechta usullardan foydalanildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan suhbat va kuzatuv o'tkazilib, ularning milliy identitet va vatanparvarlik haqidagi tasavvurlari o'rganildi. So'rovnoma yordamida o'quvchilarning qadriyatlarga munosabati haqida aniq ma'lumotlar olindi. O'qituvchilar va ota-onalar bilan intervyular o'tkazilib, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalar samaradorligi baholandi. Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, o'quvchilarda milliy g'oya va vatanparvarlikni shakllantirishdagi mavjud imkoniyatlar hamda muammolar aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari bugungi kunda ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki inson shaxsining shakllanishi, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ijtimoiy pozitsiyasi va fuqarolik burchini anglash jarayoni aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida barqarorlashadi. Shu sababli pedagogik tadqiqotlarda bu jarayonning ilmiy asoslari, amaliy texnologiyalari va samaradorlik mezonlari keng yoritilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son³ Farmon, 2022-yil 28-yanvarda yosh avlodning milliy qadriyatlarga sodiqligini ta'minlash, vatanparvarlik ruhini shakllantirish va o'zligini anglashni kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi va qator Prezident qarorlarida ham milliy identitet va vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy identitetni shakllantirish, avvalo, o'quvchilarning o'z ona tilini mukammal o'rganishi, milliy urf-odatlar va an'analariga hurmat ruhida tarbiyalanishi bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son 4qarori asosida maktab ta'limi jarayonida ona tilini chuqur o'rgatish, uni o'quvchilarning milliy o'zligini anglashida muhim vosita sifatida qarash dolzarb vazifaga aylangan.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4312-son qaror: <https://lex.uz/docs/-3864155>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmon: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4561730>

Vatanparvarlik tarbiyasi esa boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning O'zbekiston tarixi, davlat ramzlari, buyuk ajdodlar merosi, mustaqillik qadriyatlarini o'rganishi orqali shakllanadi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat ramzlari to'g'risida"gi qonunlari (1992–1993-yillarda qabul qilingan) asosida o'quvchilarni bayroq, gerb va madhiyaga hurmat ruhida tarbiyalash, dars jarayonlarida ushbu ramzlarning tarixiy va siyosiy ahamiyatini yoritish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismidir. Pedagog olimlar, jumladan, N. To'raqulov, A. Qodirov va S. To'xtayevlar o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun milliy identitetni shakllantirishning samarali yo'llaridan biri interfaol metodlardan, xususan, "klaster", "aql charxi", "bahs-munozara", "rol o'ynash" kabi texnologiyalardan foydalanishdir. Bu usullar o'quvchilarda milliy g'ururni uyg'otadi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va ularni o'z qarashlarini asoslab berishga o'rgatadi.

Milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish jarayonida darsdan tashqari mashg'ulotlarning ham ahamiyati beqiyosdir. Xususan, tarixiy obidalariga sayohatlar, davlat muzeylari va madaniyat markazlariga tashriflar, milliy bayramlar – Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Navro'z kabi tantanalarda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, yurtga mehr-muhabbat, tarixiy merosga g'urur hissi mustahkamlanadi. Bu borada Prezidentimizning "Ma'naviyat va ma'rifat markazlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari"ga oid qarorlari alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda vatanparvarlik tarbiyasini samarali amalga oshirish uchun sinf rahbarlari va o'qituvchilarning pedagogik mahorati, innovatsion yondashuvlarga ega bo'lishi ham muhim. Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimini ilmiy-metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash va pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish to'g'risida"gi qarorida ham pedagoglarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, ularni milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim texnologiyalari bilan ta'minlash zarurligi alohida qayd etilgan.

Milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirishda ota-ona va oilaviy muhitning roli ham beqiyosdir. Chunki o'quvchilar maktabdan olgan bilimlarini oilada mustahkamlashlari, ota-onalarning milliy qadriyatlarga munosabati va kundalik hayotda qo'llaydigan amaliy odatlari bolalarning ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu borada oila, maktab va mahalla hamkorligini kuchaytirish, birgalikdagi tadbirlarni tashkil etish milliy tarbiyaning muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalarining samaradorligi bir qator omillarga bog'liq: pedagogik jarayonning uzluksizligi, o'qituvchilarning innovatsion yondashuvi, ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasi, darslik va qo'llanmalarining mazmuniy boyligi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi. Shu jihatdan, "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturi (2020-yil) doirasida ishlab chiqilgan yangi darsliklar va metodik qo'llanmalar ham boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlarga asoslangan o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil bo'ldi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayon faqat dars bilan cheklanmay, balki darsdan tashqari faoliyat, oilaviy tarbiya, jamoatchilik ishtiroki va davlat siyosati bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarur. Shundagina yosh avlodda milliy iftixor, o'zligini anglash va Vatanga sodiqlik tuyg'ulari chuqur shakllanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish masalasiga oid yondashuvlar o'ziga xos bosqichma-bosqichlikni ham talab etadi. Avvalo, o'quvchilarda milliy ramzlar va qadriyatlarga hurmat uyg'otish, ularni tushuntirish va amaliy faoliyatda qo'llashga o'rgatish zarur. Masalan, davlat madhiyasini kuylash jarayonida har bir so'zning mazmunini bolalarga sodda va tushunarli shaklda izohlash, gerb va bayroqdagi ramzlarning tarixiy ildizlarini tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usi shakllanadi. Shu bilan birga, boshlang'ich ta'lim darsliklarida keltirilgan she'r, ertak, hikoya va maqollardan milliy g'oyani singdiruvchi, vatanparvarlik mazmunini o'zida mujassam etgan materiallarni tanlab o'rganish katta samaraga ega.

Milliy identitetni shakllantirishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi globallashtirish sharoitida turli madaniyat va g'oyalar o'rtasida yoshlarning o'z milliy o'zligini yo'qotmasligi, balki uni asrab-avaylashi talab etiladi. Shu jihatdan, ta'lim jarayonida o'quvchilarni milliy qahramonlar hayoti, buyuk allomalar merosi, xalq og'zaki ijodi namunalaridan xabardor qilish, ularning hayotiy faoliyatidan ibratli jihatlarni o'rganishga yo'naltirish zarur. Masalan, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar faoliyati orqali yosh avlodda ilmga chanqoqlik, Vatanni sevis va maqsad sari intilish ruhini kuchaytirish mumkin.

Bu kabi yondashuv o'quvchilarda nafaqat bilim, balki milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'ularini amaliy faoliyat orqali shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, yoshlarning milliy qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiyasini tashkil etish ham dolzarb masalalardan biridir. O'zbek xalqining milliy musiqa, raqs, kiyim-kechak va amaliy san'at namunalarini o'quvchilarga o'rgatish orqali ularda madaniy merosga qiziqish va hurmat uyg'otish mumkin. Boshlang'ich sinflarda xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish, milliy bayramlarda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash ularning milliy ruhiyatini yanada mustahkamlaydi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni yanada kuchaytirish, yosh avlod ongida milliy g'oya va qadriyatlarni shakllantirishning tizimli mexanizmlarini yaratish belgilab berildi. Bu esa boshlang'ich ta'limda o'qituvchilarning vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha dars va mashg'ulotlarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishini taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish jarayonida maktab va oila hamkorligi mustahkam yo'lga qo'yilsa, samaradorlik yanada yuqori bo'ladi. Ota-onalar farzandlariga milliy urf-odatlarini singdirishi, oilaviy an'analarda Vatan, yurt, ota-bobolar merosiga hurmatni ustuvor qadriyat sifatida qarashi pedagogik jarayonning samarali davomidir. Shu nuqtayi nazardan, mahalla, maktab va oilaning hamkorlikda faoliyat yuritishi – barkamol avlodni tarbiyalashning muhim kafolatidir.

Yuqoridagi ilmiy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish uchun davlat siyosati, pedagogik yondashuvlar, ota-ona va jamoatchilikning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari bir butun tizim sifatida uyg'unlashgan taqdirdagina kutilgan natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish jarayonida psixologik omillarga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar shaxsiy qarashlari endi shakllanayotgan davrda bo'lgani uchun ularga milliy qadriyatlarni sodda, ravshan va ta'sirchan usulda yetkazish pedagogning mahoratiga bog'liqdir. Shu jihatdan, bolalarning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ertaklar, rivoyatlar, tarixiy voqealardan parchalar, milliy qahramonlar haqidagi hikoyalar katta tarbiyaviy kuchga ega. Masalan, Amir Temur bobomizning adolatparvarlik tamoyillari, Jaloliddin Manguberdi jasorati, Zahiriddin Muhammad Boburning bilimga chanqoqligi va vatanparvarligi kabi misollar bolalar ongida mustahkam o'rin oladi.

Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ham jarayonning samaradorligini oshiradi. Masalan, "aqliy hujum" usuli orqali o'quvchilardan "Vatan deganda nimalarni tushunasiz?", "O'zbek xalqining eng muhim qadriyatlari nimalardan iborat?" kabi savollarga javob olish ularning milliy o'zlik haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. "Rol o'ynash" metodi asosida esa o'quvchilar tarixiy shaxslarning siymosiga kirib, ular orqali vatanparvarlikni his qilishlari mumkin. Bu usullar o'quvchilarni faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida tarbiyaviy jarayonga jalb etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy bayramlar va davlat ahamiyatiga ega sanalarni keng nishonlash ham muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Vatan himoyachilari kuni, Navro'z bayrami, O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun kabi sana va tadbirlarni maktab miqyosida yuqori saviyada o'tkazish, ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos holda tashkil etish orqali o'quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy iftixor, g'urur va mas'uliyat tuyg'ulari kuchayadi.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham dolzarbdir. Multimedia vositalari, animatsiyalar, videodarslar orqali tarixiy shaxslar, milliy qadriyatlar va Vatanimizning go'zal manzaralarini o'quvchilarga taqdim etish ularning ongida milliy iftixor tuyg'usini kuchaytiradi. Masalan, "Virtual sayohat" texnologiyasi orqali Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarning obidalarini sinf sharoitida ko'rsatish o'quvchilarning nafaqat bilimini oshiradi, balki ularda milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlikni shakllantiradi.

Milliy identitetni shakllantirish jarayonida fanlararo integratsiya ham samarali natijalar beradi. Tarix, adabiyot, ona tili, musiqa, tasviriy san'at kabi fanlarni uyg'unlashtirib o'qitish o'quvchilarda milliy qadriyatlarga nisbatan keng qamrovli tushunchani shakllantiradi. Masalan, adabiyot darslarida o'rganilgan vatanparvarlik ruhida she'rlarni musiqa darslarida kuy bilan ifodalash, tasviriy san'at mashg'ulotlarida esa shu asarlar asosida rasmlar chizish o'quvchilarda milliy o'zlikni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, ta'lim muassasalarida milliy g'oya va ma'naviyat xonalari tashkil etilishi ham bu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi muhim omillardandir. Bu xonalarda buyuk ajdodlar hayoti va merosiga oid manbalar, davlat ramzlari, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi ko'rgazmalar joylashtirilishi o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Shu tariqa, ular milliy merosni bevosita ko'rib, his qilib, o'zida milliy g'ururni mustahkamlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda (masalan, O'zbekiston Milliy universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti olimlarining tadqiqotlarida) ta'kidlanishicha, milliy identitetni shakllantirish jarayonida pedagogning shaxsiy namunasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi milliy qadriyatlarni o'z hayotida qo'llasa, ularning ta'siri o'quvchilar ongida yanada kuchliroq bo'ladi. Pedagogning yurish-turishi, nutqi, kiynish madaniyati ham o'quvchilarga bevosita namuna bo'ladi.

Shu asosda aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari ko'p qirrali, murakkab va tizimli yondashuvni talab etadi. Davlat siyosati, pedagogik yondashuvlar, ota-ona tarbiyasi, mahalla va jamoatchilik hamkorligi, shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy mahorati uyg'un holda ishlatilgandagina ushbu jarayon kutilgan samarani beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish masalasi zamonaviy ta'lim jarayonining eng dolzarb va ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki aynan ushbu yosh davrida bola shaxsining asosiy xarakteri, dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy-axloqiy me'yorlari shakllanadi. Milliy g'oya va mafkuraviy tarbiya, o'quvchilarning ona tilini chuqur o'rganishi, milliy qadriyatlar va urf-odatlar bilan tanishishi, shuningdek, o'z xalqining tarixiy merosini o'zlashtirishi milliy identitetning mustahkamlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar, xususan, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyiliga asoslangan Davlat dasturlari, "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi, shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlarda belgilangan vazifalar ushbu jarayonni metodik va huquqiy jihatdan kafolatlab bermoqda.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy texnologiyalarni qo'llash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, milliy ramzlar, folklor namunalaridan samarali foydalanish, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini o'quvchilarga chuqur singdirish orqali ularning milliy o'zlikni anglash tuyg'usi mustahkamlanadi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat, tinchlik va barqarorlikni qadrlash, milliy birlik va birdamlikni e'zozlash ruhida tarbiyalash ularning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, klaster, loyihaviy yondashuvlar, muammoli ta'lim va rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash yuqori samara beradi. Demak, boshlang'ich ta'lim bosqichida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirishning samaradorligi o'qituvchilarning kasbiy mahorati, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishi, oilaviy va ijtimoiy muhit bilan hamkorligi bilan bevosita bog'liqdir.

Shuning uchun bu sohada olib borilayotgan davlat siyosatini yanada chuqurlashtirish, metodik ta'minotni kuchaytirish, milliy pedagogika merosini zamonaviy ta'lim jarayoniga uyg'unlashtirish va o'quvchilar ongida milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish kelgusida yetuk, vatanparvar va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashning muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent: Adolat, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asari. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risidagi qarori. – Toshkent, 2018.
5. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" konsepsiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Yo'ldoshev J.G', Ochilov M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2016.
9. Hasanboyeva O., Nishonova Z. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Milliy qadriyatlarni targ'ib etish va yoshlar tarbiyasi"ga oid qarorlari. – Toshkent, 2020.
11. Qodirov A. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2022.
12. Rasulov R. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
13. To'xtayev Sh. Boshlang'ich sinflarda ma'naviy tarbiya metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
14. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" nutqi. – Toshkent: Prezident matbuot xizmati, 2019.
15. Pedagogik ensiklopediya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.